



ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA HIKOYA O'TISH METODIKASI

Olimboyeva Malohat Qudrat qizi

Urganch davlat universiteti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7940796>

ARTICLE INFO

Received: 06th May 2023

Accepted: 15th May 2023

Online: 16th May 2023

KEY WORDS

Hikoya, tahlil qilish, qayta hikoyalash, nutq o'stirish, interfaol metodlar, hikoya syujeti.

ABSTRACT

O'quvchilarga hikoya matni haqida ma'lumotlar berish, tushunchalarini, fikrlash, qayta hikoyalash kabi hislatlarini namoyon qilishdan iborat.

Hikoya kichik hajmli badiiy asar bo'lib, unda kishi hayotidagi ma'lum bir voqea, hayotning muhim tomonlari umumlashtirib tasvirlanadi. "Hikoya ko'pincha kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmuni ertakdagidan ortiqroq hayotiydir". Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonlarning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni hikoya bilan tanishtirish uning sujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matnni qayta hikoyalash shu kabilar asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni odatda savollar asosida tahlil qilinadi.

So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish hamda dalillar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea-hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash va umumlashtirish uchun foydalaniladi. Hikoyani o'qish darsida o'quvchilar tushunmaydigan so'z va iboralar m a'nosini tushuntirish ham muhim, aks holda ular hikoya mazmunini tushuna olmaydilar. Hikoyani o'qishda uning mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qib bo'lingach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlani shga vaqt berish kerak. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqan-yoqmaganligi va undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etganini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya sujeti, voqeaning yo'nalishini ochishga, personajlar xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi.

Badiiy asarni tahlil qilishda sujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qahramonlarga tavsif berish, asar qurilishi ham tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Ertak janriga xos matnlar jozibadorligi bilan bolani o'ziga tortadi. Lekin hikoya janri ham hayotiyliigi bilan o'ziga xos. Hikoyada voqealar tez rivojlanib boradi. Unda inson hayoti, u



bilan bog'liq hayotiy lavhalar bayon etiladi. O'quvchilar qahramonlarning xarakteri, ulardagi xususiyatlar bilan qiziqadilar. Masalan, 3-sinf "O'qish kitobi"dagi "Dadam qurgan dengiz" (Hakim Nazir), "Olma" (Malik Murodov), "Ilmli mingyashar" (Nurmat Maqsudiy), "Xazonchinak" (O'.Hoshimov), "Qo'shterak" (A. Irisov), "Mehnatkash qiz" (Oybek) va boshqa qiziqarli hikoyalar berilgan. Ular mavzu jihatdan xilma-xil bo'lib, qahramonlarining xarakter-xususiyatlari bilan ham farq qiladi.

Hikoya biror bir davr bilan bog'liq bo'ladi. O'quvchilar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi hikoyalar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Masalan, 3-sinfda "Jaloliddin Manguberdi" hikoyasida Chingizxon va uning qo'shinlariga nisbatan nafrat uyg'otilsa, Jaloliddin Manguberding xatti-harakati misolida ona-Vatanga mehruhabbat uyg'otiladi, uning taqdiri orqali o'z ajdodlaridan faxrlanish tuyg'usi paydo bo'ladi. Hikoya tahlili adabiy tur sifatida o'ziga xos xususiyatlari ham vazifasidan kelib chiqib ish ko'rishni taqozo etadi. Undagi har bir so'z, ibora, gap yozuvchining fikrini ifodalashga xizmat qiladi. Hikoya matni uning mazmunini yoki badiiy xususiyatlarini o'rganishdagina emas, balki tahlilning ifodali, adabiy, shartli yoki ijodiy o'qish, muammoli usullardan foydalanish uchun ham manba bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinflarda hikoya sujeti, kompozitsiyasi, qahramonlarini o'rganish bo'yicha turli tahlillar matn ustida ishlash asosida olib boriladi. Bunda o'quvchining ijodiy faolligi ortadi, ijodiy fikrlash doirasi kengayadi.

Hikoya mazmunini o'zlashtirish bo'yicha matn asosida quyidagicha ishlar amalga oshiriladi:

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish.
2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish.
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarning savollar tuzishi.
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.
5. Hikoya matnini qismlarga bo'lish.
6. Har bir qismga sarlavha topish.
7. Hikoyaga reja tuzish.
8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).
9. Reja asosida bayon yozish.

Hikoya mazmunan boshlang'ich sinf uchun mos janr hisoblanadi. Kichik yoshdagi o'quvchilarni qahramonning xatti-harakati, tashqi ko'rinishi, portret tasviri, voqea-hodisalar haqidagi hikoyalar ko'proq qiziqtiradi. Shuning uchun bolalarni badiiy asar turi bo'lgan hikoya bilan tanishtirish uning syujetini tushuntirishga bog'lab olib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda hikoyani o'qishga bag'ishlangan izohli o'qish darslarida o'qilgan hikoya mazmunini ochish, lug'at ustida ishlash, o'qilgan matn qayta hikoyalash asosiy ish turlaridan hisoblanadi. Hikoya mazmuni, odatda, savollar asosida tahlil qilinadi. Bunda savollar qatnashuvchi shaxsning xatti-harakati va xarakterini tahlil qilishga qaratilgan bo'ladi. So'roqlardan ikki maqsadda: hikoya mazmunini tahlil qilish va faktlar, mulohazalar, xulosalarni taqqoslash, voqea hodisalar, xatti-harakat o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash ham umumlashtirish uchun foydalaniladi.



Hikoyani o'qishda hikoya mazmunini tahlil qilish va shu asosda o'quvchilar nutqini o'stirish markaziy o'rin egallaydi. Hikoya o'qilgach, o'quvchilar o'ylashi, o'z mulohazalarini aytishi uchun tayyorlanishga vaqt berish talab etiladi. O'qilgan asar yuzasidan beriladigan dastlabki savollardan maqsad hikoya bolalarga yoqqanyoqmagani va undagi qaysi qahramonning xarakteri bolaga ta'sir etgani, bolalar kim yoki nima haqida hikoya qilib berishni istashini bilishdan iborat. Shundan keyingina hikoya xarakterini tushunishga, nihoyat, asarning asosiy g'oyasini bilib olishga yordam beradigan savollardan foydalaniladi. Badiiy asarni tahlil qilishda syujetni to'liq tushuntirishga berilib ketib, qatnashuvchilarga xarakteristika, asar qurilishi va tilini tahlil qilish kabi ish turlari e'tibordan chetda qolmasligi lozim.

Savollarni, odatda, o'qituvchi beradi, ammo asar mazmuni, qatnashuvchi shaxslarning xulq-atvorini ochish yuzasidan o'quvchilarga ham savol tuzdirish juda foydali. Bu usul bolalarga juda yoqadi va ishni jonlantiradi; asar mazmunini yaxshi tushunish, mazmun va voqealar orasidagi bog'lanishni to'liq esda saqlab qolishda o'quvchilarga yordam beradi. Hikoyani o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari, unda ilgari surilgan g'oyani bilib olishlari uchun matn bilan ishlash jarayonida tanlab o'qish, savollarga javob berish, hikoya qismiga o'zlari savol tuzishi, so'z bilan va grafik rasm chizish, reja tuzish, qayta hikoyalashning barcha turlaridan, ifodali o'qishga tayyorlanish kabi ish turlaridan foydalaniladi. Bugungi kunda yuksak ma'naviyatga ega bo'lgan, har tomonlama rivojlangan sog'lom avlodni tarbiyalab, yoshlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta'lim berish mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ustivor vazifalardan biri hisoblanadi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bunda dars jarayonida interfaol metodlarini qo'llash orqali erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyati yuksak, insoniy fazilatlarga boy yosh avlodni tarbiyalashda hikoyalarni o'qib-o'rganish muhim o'rin tutadi. Ta'lim va tarbiyaning yangicha mazmuni o'quvchilarning bilim sifatini yanada oshirish, o'quv-tarbiya jarayonini yana takomillashtirish; o'qitish metodlarini hozirgi kun talablari darajasiga ko'tarish; bolaning bilim qobiliyatlarini maksimal darajada rivojlantirish; berilgan bilim va ko'nikmalarning ongli, puxta o'zlashtirilishiga erishish; o'quvchilarning mustaqil amaliy mehnat ko'nikmalarini o'stira borish kabi vazifalarni ko'zda tutadi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilishda o'qish darslari ham katta o'rin egallaydi. Ayniqsa o'qish darslarida hikoya o'tishni to'g'ri amalga oshirish orqali o'quvchilarga ta'lim va tarbiya beriladi. Har hil voqealar aks etgan hikoyalardan o'quvchilar ibrat oladi, xulosa chiqaradi va kelajakda qo'llaydi.

References:

1. Qosimova K., Matchanov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Soriyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi-T: "Nosir" 2009.
2. O'qish kitobi: 3-sinf uchun darslik. M.Umarova, X.Xamroqulova, R.Tojiboyeva; Toshkent, "O'qituvchi", 2019.
3. <http://fayllar.org//1-mavzu-oqish-darslarida-hikoya-janridagi-asarlarniorganish-d.html>